O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 4

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 4
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

4-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 4
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA MADANIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING TARKIBIY QISMLARI VA ULARNING AHAMIYATI

Sulaymonova Tanzila Zoir qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, tayanch doktorant.
e-mail: sulaymonovatanzila303@gmail.com

Annotatsiya.

Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarda madaniy kompetensiyani shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari va tarkibiy qismlari tahlil qilingan. Maqolada o‘qituvchi shaxsining shakllanishida tayanch va xususiy kompetensiyalar bilan bir qatorda madaniy kompetensiyaning o‘rni hamda uning globallashuv davridagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida xalqimizning boy ma’naviy merosi — xalq og‘zaki ijodi, milliy urf-odatlar, an’analar va marosimlar, shuningdek, buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma’rifiy asarlari madaniy kompetensiyani shakllantiruvchi asosiy manbalar sifatida asoslab berilgan. Maqolada keltirilgan tahlillar bo‘lajak pedagoglarni milliy qadriyatlar ruhida tayyorlash va ularning madaniy muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: madaniy kompetensiya, bo‘lajak pedagog, ma’naviy meros, xalq og‘zaki ijodi, folklor, milliy an’ana, urf-odat, marosim, ma’rifiy meros, ajdodlar merosi.

СТРУКТУРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ

Сулаймонова Танзила Зоир кизи

Джизакский государственный педагогический университет, докторант базовой докторантуры.

Аннотация.

В данной статье анализируются теоретико-педагогические основы и структурные компоненты формирования культурной компетенции у будущих педагогов. Рассматриваются роль культурной компетенции наряду с ключевыми и специальными компетенциями в становлении личности учителя, а также её значение в условиях глобализации. В ходе исследования обосновывается, что богатое духовное наследие узбекского народа — устное народное творчество, национальные обычаи, традиции и обряды, а также научно-просветительские труды великих предков — выступает основными источниками формирования культурной компетенции. Представленный в статье анализ способствует подготовке будущих педагогов в духе национальных ценностей и развитию их способностей к межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: культурная компетенция, будущий педагог, духовное наследие, устное народное творчество, фольклор, национальная традиция, обычай, обряд, просветительское наследие, наследие предков.

STRUCTURAL COMPONENTS OF DEVELOPING CULTURAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS AND THEIR SIGNIFICANCE

Sulaymonova Tanzila Zoir qizi

Jizzakh State Pedagogical University, Doctoral Student.

Abstract.

This article analyzes the theoretical and pedagogical foundations and structural components of developing cultural competence in future teachers. It examines the role of cultural competence, alongside key and specific competencies, in the professional and personal development of teachers, as well as its significance in the era of globalization. The study substantiates that the rich spiritual heritage of the Uzbek people — oral folk traditions, national customs, traditions, and rituals, as well as the scholarly and educational works of great ancestors — serves as a fundamental source for developing

cultural competence. The analysis presented in the article contributes to preparing future teachers in the spirit of national values and enhancing their intercultural communication skills.

Keywords: cultural competence, future teacher, spiritual heritage, oral folk traditions, folklore, national tradition, custom, ritual, educational heritage, ancestral heritage.

Kirish. Bugungi globallashuv va madaniyatlararo muloqot jadal rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimi oldiga nafaqat bilimli, balki keng dunyoqarashga ega, turli madaniyatlarga nisbatan bag'rikeng va moslashuvchan mutaxassislarni tayyorlash vazifasi qo'yilmoqda. Ayniqsa, shaxsiyatning poydevori qo'yiladigan maktab ta'limida o'qituvchining o'rni beqiyosdir. Bo'lajak pedagoglarda o'z kasbiga oid kompetensiyalarni shakllantirish orqali o'sib kelayotgan yosh avlod vakillarini dunyoda o'z tengdoshlari bilan har sohada raqobatlasha oladigan, o'zining va o'zgalarning taqdiriga befarq bo'lmagan shaxs sifatida tayyorlashga zamin bo'ladi.

Avvalo, "Kompetensiya nima?", "U qaysi tildan kirib kelgan va qanday ma'no anglatadi?" – degan savollarga javob topib olish maqsadida kompetensiyaga berilgan ta'riflarni ko'rib chiqamiz. Kompetensiya so'zi ilk bor 1955-yilda N. A. Xomskiy tomonidan qo'llangan bo'lib, tilni ishlatish jarayonida "faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida" talqin etilgan, "kompetensiyaviy yondashuv" esa ta'limda natijaviylikni ko'rsatuvchi omil sifatida qayd etilgan.

Kompetensiya tushunchasi, uning qaysi tildan kirib kelganligi haqida turli xil fikrlar mavjud, ammo ularning barchasi bu tushunchaning mazmun-mohiyatini ifodalashda bitta to'xtamga asoslanadi, jumladan, B. Xodjayevning fikricha, "Kompetensiya (lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman ma'nolarini bildiradi) – subyektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali birga tashkil qila olishiga tayyorligini bildiradi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir" [1].

Muallifning fikridan kelib chiqqan holda, kompetensiya insonning mavjud bilim va hayotiy tajribalariga tayangan holda ma'lum bir muammoni hal etishga doir qobiliyati, deyish mumkin. Bizning fikrimizcha ham kompetensiya insonga nafaqat kasbiy, balki uning butun hayotiy faoliyati davomida foydalanadigan qobiliyatlar yig'indisidir. Ularni to'la egallamay turib, hech bir o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatini muvaffaqiyatli yurita olmaydi.

Zamonaviy asrimizda bo'lajak pedagog kadrlardan ularning umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan tayanch kompetensiyalar va o'quv fani orqali shakllantiriladigan xususiy kompetensiyalar bilan birgalikda madaniy kompetensiya ham talab etilmoqda. Aytish joizki, o'qituvchining tayanch kompetensiyalari uning intellektual salohiyatini belgilasa, xususiy kompetensiyalari dars o'tish texnikasini ta'minlaydi. Biroq faqatgina madaniy kompetensiya orqali bu bilimlar jonlanadi va o'quvchining qalbiga yetib boradi. Madaniy kompetensiyasiz o'qituvchi — shunchaki ma'lumot yetkazuvchi texnik, madaniy kompetensiyaga ega o'qituvchi esa — shaxsiyatni shakllantiruvchi murabbiydir.

Bo'lajak pedagoglarda madaniy kompetensiyani shakllantirish ularning pedagogik mahoratini oshirish bilan bir qatorda, yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglash ruhida tarbiyalashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

MATERIALLAR VA USULLAR

Madaniy kompetensiyaning nazariy asoslari haqida gap borganda, avvalo, bu kompetensiyaning tushunchasi haqida batafsil bilib olish talab etiladi va u pedagogikaning asosi sifatida qaraladi. Madaniy kompetensiya tushunchasi ilk bor sotsiologiya va antropologiya fanlarida paydo bo'lib, keyinchalik pedagogika sohasida ham muhim metodologik tushuncha sifatida shakllandi.

O'qituvchi faoliyatida madaniy kompetensiyaning roli beqiyos sanaladi. Ta'lim tizimidagi barqarorlik va sifat o'qituvchining kasbiy malakasi, shu jumladan, madaniy kompetensiyasi bilan bevosita bog'liq.

Madaniy kompetensiya — bu pedagogning turli madaniy muhitda samarali faoliyat yurita olish qobiliyati, ya'ni boshqa madaniyat vakillari bilan muloqotga kirisha olish, ularning qadriyatlarini tushunish va hurmat qilish, o'z shaxsiy madaniy qadriyatlarini esa konstruktiv shaklda ifodalay olishidir [2].

Ayni paytda ta'lim muassasalarida turli madaniyat va ijtimoiy qatlamlardan kelgan o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchining madaniy sezgirligi, empatiyasi va kommunikativ ko'nikmalari asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Aslini olganda, o'qituvchining madaniy kompetensiyasi quyidagi yo'nalishlarda ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

- O'quvchilarda tolerantlik va hurmat madaniyatini shakllantirish;
- O'z xalqining milliy qadriyatlari va boy ma'naviy merosiga nisbatan hurmat;
- Konstruktiv va samarali sinf muhitini yaratish;
- Madaniy stress, noto'g'ri tushunish va ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olish;
- Global fuqarolik ongini tarbiyalash.

Bugungi kunda Vatanimizda 130 dan ortiq millat va elatlar yashashini hisobga olgan holda, ular orasidagi ahillik, tinchlikni bardavom qilish maqsadida bolalarga yoshlikdanoq o'zining va o'zga xalqlarning urf-odat va qadriyatlarini hurmat qilish va ularni asrab-avaylashni o'rgatish ta'lim-tarbiya borasidagi ishlarimizdan biri ekan, dastlab bu yo'lda yosh avlodga ta'lim muassasasida ilk saboqlarni beruvchi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga katta mas'uliyat yuklanishini ta'kidlab o'tmoq lozim. Bu esa oliy ta'lim muassasalarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida ta'lim-tarbiya olayotgan

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini yanada sergaklikka chorlab, bo‘lg‘usi mutaxassislarda madaniy kompetensiyaning ham shakllanishini taqozo etadi.

Madaniy kompetensiyaning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri – o‘z xalqi tarixi, urf-odatlari va san’atini chuqur bilish hisoblanadi va bu bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy bilimlarni egallashi bilan birga, xalqimizning boy ma’naviy merosini chuqur o‘rganishini taqozo etadi. Xalqimizning boy ma’naviy merosi — bu xalqimiz vakillari bilan birga yashab, shu xalq bilan birga asrlar davomida shakllangan, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan intellektual, axloqiy va madaniy xazinadir. U shunchaki moddiy buyumlar emas, balki millatning “ruhi” va “yashash falsafasi”dir.

O‘zbek xalqining ma’naviy merosi, asosan, quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

- Og‘zaki va yozma adabiyot;
- Milliy urf-odatlar, an’analar va marosimlar;
- Ajdodlarimizning ma’naviy-ma’rifiy merosi.

Adabiyot haqida Mario Bargas Losa “Adabiyot tufayli, adabiyot uyg‘otgan tafakkur, intilish va istaklar tufayli, xayolot saltanatiga safar chog‘i ko‘ngilda bosh ko‘targan kechinmalar tufayli bugungi sivilizatsiya odamiylashdi, najot topdi. Adabiyot ahli o‘ylab topgan badiiy to‘qima qumga singigan suvdek, izsiz ketmadi, bil’aks, toshga aylangan yuraklarni mumdek yoritdi. Yaxshi kitoblar bo‘lmaganida edi, insoniyatning bugungi holiga maymunlar yig‘lagan bo‘lardi, mustaqil fikrdan mahrum labbaychilar urchib ketardi, ko‘ngil birligi yo‘qolardi, qaramlik kayfiyati keng tarqalib, o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usi – taraqqiyotning yetakchi omili – yo‘qolardi” [3], – deb yozadi.

Adabiyot ikki turga – og‘zaki va yozma turga bo‘linadi. Og‘zaki adabiyot yozma adabiyotga nisbatan oldinroq paydo bo‘lgan. Og‘zaki adabiyot namunalarining yozma adabiyot bilan aloqasi tilimiz lug‘at boyligida namoyon bo‘ladi. Xalqimizning boy ma’naviy merosini saqlab qolish va uni kelajak avlodga bezavol yetkazishda yozma adabiyotning o‘rni beqiyosdir. Yozma adabiyot paydo bo‘libdiki, og‘zaki adabiyotdan oziqlanadi va uning go‘zal namunalaridan oziqlanib, qayta ishlanadi. Qaysiki ijodkor folklor an’analari ichida yashagan, uni o‘ziga singdirgan bo‘lsa, o‘sha ijodkorning asari tili jihatdan ham ancha mukammal ekanligi kuzatiladi. Zero, milliy ong va tafakkurning shakllanishida badiiy asarning o‘rni beqiyos [4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bilamizki, bolajonlar yoshligidanoq oilada bobo-buvilari, ota-onasi yoki aka-opalari tomonidan, maktabgacha ta’lim muassasasida tarbiyachilari tomonidan aytilgan xalq og‘zaki ijodi namunalarini tinglaydilar. Xalq og‘zaki ijodining turli xil janrlari esa bolalarni ezgulik, mardlik, vatanparvarlik, saxiylik, mehnatsevarlik va odamiylikka chorlab, kamolot sari yetaklaydi. Qolaversa, xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘sha xalqning o‘tmishi, kelib chiqishidan ham xabar beradi, desak, adashmagan bo‘lamiz. Xalq og‘zaki ijodi “Folklore” atamasi bilan sinonim tarzda qo‘llanilib, bu atama birinchi marta XIX asr tadqiqotchisi Uilyam Tomas tomonidan 1864-yilda qo‘llanilgan bo‘lib, aslida ikki so‘zdan iborat: “Folk” – xalq, “Lor” (lore) – bilim, donolik, donishmandlik, ya’ni “xalq bilimi”, “xalq donishmandligi” [5] degan ma’nolarni bildiradi.

Insoniyat paydo bo‘libdiki, doimo jamoa bo‘lib yashashga ehtiyoj sezadi. Buni biz kishilik jamiyatining ilk davrlari – ibtidoiy jamoa tizimidanoq ko‘rishimiz mumkin. O‘sha davrlardanoq jamoa a’zolari birgalikda ov qilishgan, turli tomoshalar o‘tkazishgan. Barchamizga ma’lumki, bu davrda hali yozuv paydo bo‘lmagan, lekin shunday bo‘lishiga qaramasdan, jamoa vakillari turli tomoshalarda o‘zlarining orzu-umidlari, istak-xohishlari ifoda etilgan og‘zaki ijod namunalaridan foydalanishgan. Demakki, og‘zaki ijod namunalari yozuv kashf etilmasidan ilgari paydo bo‘lgan va ular hali-hanuz xalq vakillari tilida og‘izdan og‘izga o‘tib, sayqallanib kelmoqda.

Xalq og‘zaki ijodi asarlari uzoq muddatli ijodiy jarayonda og‘zaki tarzda avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o‘tib, yuzaga keladi va yashaydi. Yozma adabiyot namunasining og‘zaki ijod namunalaridan yana bir farqi – yozma adabiyot namunalarining muallifi ham, yozilgan vaqti ham ma’lum bo‘ladi. Og‘zaki ijod namunalarining muallifi xalq bo‘lib, ularning yozilgan vaqti noaniq, joyi bu ijod namunalarini yaratgan xalq yashaydigan joy hisoblanadi. V. G. Belinskiy aytganidek, “Folklorda mashhur nomlar yo‘q, chunki uning muallifi hamisha xalqdir. Uning navqiron xalq yoki qabila ichki va tashqi hayotining jimjimalarsiz va aniq tasvirlangan oddiy va soddagina qo‘shiqlarini kim to‘qiganini hech kim bilmaydi va bu qo‘shiq urug‘dan urug‘ga, avloddan avlodga o‘tadi va vaqtlar o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Goh uni qisqartirishsa, goh uzaytirishadi, goh yangidan to‘qishadi, goh unga boshqa qo‘shiqni ulashsa, goh unga qo‘shimcha qilib boshqa qo‘shiqni to‘qishadi – shunda qo‘shiqdan doston chiqadi, faqat xalq unga o‘zini muallif sanay oladi. Adabiyot – boshqa ish, endi xalq emas, balki xalq hayotining turli tomonlarini o‘z aqliy faoliyatlarida aks ettiruvchi alohida shaxslar uning arbobi. Adabiyotda shaxs to‘la huquq bilan maydonga chiqadi va adabiy bosqichlar hamisha shaxsning nomi bilan ajralib turadi” [5].

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan xalq og‘zaki ijodi namunalarini saqlash va ularni kelajak avlodga yetkazib berish maqsadida “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari”ning 100 jildlik to‘plami nashr etilayotgani va ularning 59 jildi dostonlar, 10 jildi xalq qo‘shiqlari, 12 jildi ertaklar, qolgan jildlari esa terma, afsona, rivoyat, naql, maqol, topishmoq, askiya, latifa, og‘zaki drama va boshqa janrlardan iboratligi xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan yuksak e’tiborning namunasidir.

Xalq og‘zaki ijodini chuqur o‘rganish bo‘lajak pedagoglarda madaniy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qilishi bilan birga, ularga milliy qadriyatlarga hurmat, xalqimizning boy ma’naviy merosini asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish mas’uliyatini ham yuklaydi.

O‘zbek xalqi ma’naviy merosining ajralmas qismi hisoblanadigan milliy urf-odatlar, an’analar va marosimlari ham

borki, ular o‘z navbatida birmuncha farqlanadi. Aytish joizki, xalqimizning milliy urf-odatlari va an’analari shunchaki uning kundalik turmush tarzi emas, balki asrlar davomida saralangan, xalqning donishmandligi, axloqiy me’yorlari va estetik qarashlarini o‘zida mujassam etgan jonli ma’naviy merosidir.

An’ana – bu o‘ziga xos ijtimoiy hodisa bo‘lib, kishilarning ongida, hayotida o‘z o‘rnini topgan, avloddan avlodga o‘tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma’lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalardir.

Odat (“urf-odat”) – kishilarning turmushiga singib ketgan, ma’lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari. Masalan:

- kichiklarning kattalarga salom berishi;
- erta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo‘yish;
- mehmonlarga alohida hurmatda bo‘lish;
- bayram arafasida kasal, ojiz, qiynalganlardan xabar olish;
- yordam lozim bo‘lganlarnikiga hasharga borish kabilar o‘zbek xalqining yaxshi odatlari hisoblangan.

Agar an’ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning hamma sohalariga xos bo‘lib, hodisalarning juda keng doirasini qamrasa, odat ijtimoiy hayotning ma’lum sohalarida, ya’ni:

- kishilar turmushi;
- mehnati;
- xulq-atvori;
- muloqoti;
- oilaviy munosabatlarda ko‘proq mavjud bo‘ladi.

Marosim – an’ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo‘lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko‘tarinkilik, tantanavor vaziyatda o‘tadigan, o‘zining umumiy qabul qilingan ramziy harakatlariga ega bo‘lgan hayotiy tadbir. Masalan:

- ism qo‘yish marosimi;
- nikohdan o‘tish marosimi;
- xotirlash marosimi;
- urug‘ qadash marosimi;
- o‘rimga kirish marosimi va boshqalar.

Odat kundalik hayotning turli vaqtida uchrashi mumkin bo‘lsa, marosim esa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo‘lganda vujudga keladi.

Ayniqsa, xalqimiz vakillari orasida qadriyatga aylangan va o‘zga xalqlarda uchramaydigan mehmondo‘stlik, mehnatkashlik, kattaga hurmat, kichikka izzat, andisha va yana shu kabi ko‘pgina an’ana va qarashlari borki, ular o‘zbek xalqining boshqa xalqlardan ajralib turishiga xizmat qiladigan ma’naviy kod vazifasini bajaradi. Bu qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlod ongida ularga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirish maqsadida har yili tabiat jonlanadigan bahor fasli kirib kelishida va Mustaqillik bayrami oldidan butun respublikamiz bo‘ylab umumxalq xayriya hasharlari tashkillashtirilishi va bu hasharlarda yosh-u qari birdek mehnat qilib, yurt obodligi yo‘lida mehnat qilishi Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobida qayd etilganidek, “Xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo‘lgan mehr-oqibat, insonni ulug‘lash, tinch va osoyishta hayot, do‘stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada ma’naviy hayotimizning uzviy qismiga aylanib ketgan hashar odati istiqlol davrida yangicha ma’no-mazmunga ega bo‘lib, umummilliy an’ana tusini olgani barchamizni mamnun etadi” [6], – deya o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan asriy an’analarimizni e’tirof etishi mamlakatimizda milliy qadriyat va an’analarimiz doimo yuksak e’tiborda ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalqi ma’naviy merosining bitmas-tuganmas manbalaridan yana biri – ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan boy ma’naviy-ma’rifiy merosidir. O‘z davrida ilm-fanning ilk manbalarini yaratgan va bugungi yutuqlarning poydevorini qurgan ajdodlarimizning keyingi avlod vakillariga qoldirgan boy ma’naviy merosi bugungi ilm-fan uchun dasturulamal vazifasini bajarmoqda. O‘tmish sahifalariga nazar tashlasak, buyuk ajdodlarimiz nafaqat xalqimiz, balki butun dunyo mamlakatlari tamaddunini o‘rgangan va ularning tarixi va madaniyatiga hurmat va ehtirom bilan o‘z munosabatlarini yozib qoldirgan asarlari bizgacha yetib kelgan. Buyuk Sharq allomalarining ilmiy merosi mazmuni va ko‘lami shundaki, bu meros bugun ham o‘zining ilmiy-amaliy ahamiyatini yo‘qotmasdan, yangi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Bunday manbalar qatoriga Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma” asari, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Sa’diyning “Guliston”, Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Davoniyning “Axloqi Jaloliy”, Aruz Samarqandiyning “Nodir hikoyatlar”i, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston”, Abu Nasr Forobiyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari”, Ahmad Farg‘oniyning “Astronomiya asoslari haqida kitob”, Al-Farg‘oniyning asosiy astronomik asari “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi” (“Kitob al-harakat as-samoviya va javomi’ ilm an-nujum”) va boshqa ko‘plab adabiy, tarixiy, madaniy-ma’rifiy meros namunalarini misol keltirish mumkin.

Istiqlol yillarida allomalar hayotiga oid ko‘plab asarlar chop etildi va xalqimizga tuhfa etildi, bu asarlar yoshlarimizning ma’naviy dunyosini boyitishga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan 4 mingdan ziyod moddiy-ma’naviy yodgorlik umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. Markaziy Osiyo zaminida kamol topgan, turli fanlar rivojiga hissa qo‘shgan allomalar merosini o‘rganish insonni taraqqiyotga yetaklaydi, jaholatdan yiroqlashtiradi hamda qalbida yurtga muhabbat, xalqqa xizmat, Vatanga sadoqat tuyg‘ularini mustahkamlaydi. Zero, ajdodlarimiz yaratgan boy ma’naviy meros haqida D. Farsaxonova “Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani” darsligida shunday deydi: “Insoniyat yaratgan ma’naviy boyliklar bisotida donishmandlarning pand-nasihatlari va o‘gitlari alohida o‘rin egallaydi. Donishmandlarning pand-nasihatlari umriboqiy ma’naviy boylik hisoblanadi. Chunki ularning pand-nasihati hayotdan, hayot tajribasidan kelib chiqqan va ezgu orzu-niyatni ifodalaydi hamda umuminsoniy mohiyat kasb etadi. Ulug‘ donishmandlarning pand-nasihatlari, o‘gitlari zamirida insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik va ma’rifatparvarlik g‘oyalari yotadi. Diyorimizda yaratilgan ta’limiy-axloqiy pand-nasihat tarzidagi asarlar bugungi kunda ham yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda muhim qo‘llanma, ta’lim-tarbiyaning muhim omili bo‘lib kelmoqda” [7].

XULOSA

Muxtasar qilib aytganda, bo‘lajak pedagoglarning kelgusi kasbiy faoliyatida madaniy kompetensiya shunchaki qo‘shimcha bilim emas, balki tayanch va xususiy kompetensiyalarni o‘zaro bog‘lovchi, ko‘prik vazifasini bajaradi. Madaniy kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida xalqimizning boy ma’naviy merosi — og‘zaki ijod namunalaridan tortib, buyuk allomalarimizning axloqiy o‘gitlarigacha — barchasi bo‘lajak o‘qituvchi uchun tayyor tarbiya metodikasi bo‘lib xizmat qiladi. Qolaversa, ko‘p millatli jamiyatimizda o‘qituvchining madaniy sezgirligi va tolerantligi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omili bo‘lib, maqolada tahlil qilingan an’ana, odat va marosimlarning o‘ziga xos xususiyatlarini anglash o‘qituvchiga har bir o‘quvchi va uning oilasi bilan samarali muloqot o‘rnatish imkonini beradi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida talabalarning madaniy kompetensiyasini rivojlantirish uchun nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki ularni milliy qadriyatlarimizning jonli tashuvchisi sifatida tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Zero, bo‘lajak pedagoglarda madaniy kompetensiyani shakllantirishning tarkibiy qismlarini chuqur bilish kelajakda ularning o‘z xalqining milliy-ma’naviy qadriyatlarini chuqur anglagan, o‘zida madaniy kompetensiyani shakllantira olgan va natijada xalqimizning boy ma’naviy merosini asragan holda ularni kelajak avlod ongiga singdirishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xodjayev B. X. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish: pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2016. – 314 b. – B. 179.

2. International Scientific and Practical Conference «Innovative Methods of Teaching Foreign Languages, Modern Approaches in Translation Studies and Philological Research»: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2025-yil 16–17-may. – B. 11–13.

3. Jahon adiblari adabiyot haqida // Ziyouz.uz [Elektron resurs]. – URL: https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/jahon-adiblari-adabiyot-haqida/.

4. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – B. 108.

5. Imomov K., Mirzayev T. va boshq. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – 304 b.

6. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.

7. Farsaxonova D. R. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani: darslik. – Jizzax: Ilm nuri print, 2025. – 300 b.

8. Sulaymonova T. Milliy qadriyatlar va ularning tarbiya jarayonidagi ahamiyati // Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish istiqbollari: respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. – Toshkent, 2025. – B. 489–491.

9. Elova U. R. Madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirish modelini amalga oshirish tajribasi // Yangi O‘zbekistonda o‘zbek adabiy tilining rivojlanish tendensiyalari: muammolar, yechimlar, tavsiyalar: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – 2024-yil 21-oktabr. – B. 317–319.

10. Abdullayeva U. T. O‘qituvchining madaniy kompetensiyasi: nazariy va amaliy yondashuvlar // International Scientific and Practical Conference «Innovative Methods of Teaching Foreign Languages, Modern Approaches in Translation Studies and Philological Research»: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2025-yil 16–17-may. – B. 12–13.

11. Usmonov N., Xolboyeva G. va boshq. Boshlang‘ich ta’limda kompetentlikni rivojlantirish omillari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.

12. Madayev O. Uzbek Folk Oral Poetry: Textbook. – Tashkent: Mumtoz so‘z, 2010. – P. 108.

13. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – 12-jild. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 506–507.

14. Yusupov E. Ma’naviy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent, 2003.

15. Xushvaqtov N. Talabalarni milliy-ma’naviy qadriyatlarni o‘rganishga tayyorlashning pedagogik va kompyuterli asoslari. – Jizzax, 2006. – 161 b.